

## TA'LIMNI BOSHQARISH TIZIMLARI VA ULARDAN O'QUV JARAYONIDA FOYDALANISH

**Abdullayeva Shahnoza Hamid qizi**  
TDPU Fizika-matematika fakulteti talabasi

### ANNOTATSIYA

Maqolada LMS platformalarida yaratiladigan modul texnologiyasi asosidagi elektron kurslarni ta'lim jarayonida tashkil qilish, qo'llash samaradorligi, ularning imkoniyatlaridan foydalangan holda ta'lim samaradorligini oshirish masalalari yoritib berilga.

**Kalit so'zlar:** elektron kurs, platforma, modulli texnologiya, o'quv maqsadi, didaktik materiallar, o'quv vositalari, elektron adabiyotlar, qiziqtirish, nazariy mashg'ulotlar, amaliy mashg'ulotlar.

## СИСТЕМА УПРАВЛЕНИЯ ОБУЧЕНИЕМ И ИХ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

**Абдуллаева Шахноза Хамидовна**  
студентка физико-математического факультета ТДПУ

### АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются вопросы организации и использования электронных курсов на основе модульной технологии, созданной на платформах LMS, в образовательном процессе, эффективность их использования, повышение эффективности обучения за счет их возможностей.

**Ключевые слова:** электронный курс, платформа, модульная технология, цель обучения, дидактические материалы, средства обучения, электронная литература, мотивация, теоретические занятия, практические занятие.

## LEARNING MANAGEMENT SYSTEM AND THEIR USE IN THE EDUCATIONAL PROCESS

**Abdullayeva Shahnoza Hamidovna**  
student of the Faculty of Physics and Mathematics of TDPU

## ABSTRACT

In the article, the issues of organizing and using electronic courses based on the module technology created on LMS platforms in the educational process, the effectiveness of their use, and increasing the effectiveness of education using their capabilities are discussed.

**Keywords:** electronic course, platform, modular technology, learning objective, didactic materials, educational tools, electronic literature, interest, theoretical training, practical training.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sod Farmoniga muvofiq, shuningdek, axborot-kommunikasiya texnologiyalari sohasini yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha ustuvor vazifalarni amalga oshirish maqsadida raqamlı texnologiyalar sohasida masofaviy ta'lim shaklida kadrlar tayyorlash faoliyatini rivojlantirish orqali yiliga 6,5 ming nafardan ortiq yoshlarning axborot texnologiyalari yo'nalishida ta'lim olishini yo'lga qo'yish vazifasi belgilangan<sup>44</sup>. Bu borada ta'lim muassasalarida masofaviy ta'limni tashkil etish uchun ko'plab ta'limiy maqsadlardagi platformalar mavjudki, ular masofaviy ta'limni tashkil qilish va boshqarishda yaxshi samara beradi.

Pedagoglarning fikricha, agar modul texnologiyasi asosida o'qitish to'g'ri tashkil etilsa, ta'limning har qaysi bosqichida talabalar yangi o'quv materiallarini o'zlashtiradi, ko'nikma va malakasi takomillashadi. Modul algoritm asosida ishlab chiqariladi va quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi: aniq maqsad, nazariy bilim, amaliy mashg'ulot, uslubiy ko'rsatma yo'l - yo'riqlari, nazorat, o'zlashtirilgan bilim, ko'nikmalarini baholash va hokazo.

Modul texnologiyasida o'qish quyidagi ketma-ketlik asosida amalga oshiriladi:

- modulli o'qitishning dastlabki shart - sharoitlarini tahlil etish;
- o'quv didaktik materiallarni va o'qitish vositalarini tayyorlash;
- nazariy va amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish;
- o'qituvchi talabalarning olgan nazariy va amaliy ko'nikmalarini baholash.

Yuqorida keltirilganlarning barchasi ta'lim oluvchini fikrlash darajasini kengaytirish, yuz beradigan voqealarni hodisalarini sababini aniqlash, izlanishni o'rgatishga qaratilgan.

Modul tizimining mohiyati shundan iboratki, ta'lim oluvchilar ta'limning alohida birlik modullarini izchil holda ketma-ket o'zlashtiradilar.

<sup>44</sup> <https://lex.uz/uz/docs/6166539> - O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 22 avgustdagи PQ-357-sodni "2022-2023 yillarda axborot-kommunikasiya texnologiyalari sohasini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.

Ta’limda modul tizimini qo‘llash eski modul birligi o‘rniga tezda yangisini ishlab chiqish va yangisini qo‘llash imkoniyatini beradi.

Modul tizimi asosida ta’lim berishning afzalligi shundaki, e’tibor ko‘proq ta’lim oluvchiga uning o‘z ustida mustaqil ishlashi hamda o‘z - o‘zini nazorat qilishga qaratiladi.

Modul tizimi asosida o‘qitishning davomiyligi ta’lim oluvchining tayyorgarligiga va kasbiy malakasini qay darajada egallah istagiga bog‘liq.

Modul texnologiyasi asosida o‘qitishni tashkil etishda dastlabki shart-sharoitlarni tahlil etish:

Birinchidan, o‘quvchilarning tayyorgarlik holati tahlil qilinib, ularning bilimi, o‘quv materiallarini o‘zlashtirish darajasi va qobiliyati aniqlanadi. Chunki ularning ta’lim olishida o‘ziga ishonchi, qobiliyati, shaxsiy holati va yoshi muayyan darajada ta’sir ko‘rsatadi. Talabalarning qobiliyatiga ko‘ra tabaqa lashtirish asosida ularga fanni mustaqil o‘zlashtirish tavsiya etiladi.

Ikkinchidan, mavjud shart sharoitlar tahlil etiladi. U o‘z ichiga quyidagilarni qamrab oladi [3], [4]:

- Huquqiy shart sharoitlar. Bunda ta’lim jarayoniga taalluqli o‘quv rejasi va dasturlar o‘rganiladi.
- O‘quv jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq shart sharoitlar. Bunda modul tarkibiga kirgan nazariy va amaliy mashg‘ulotlar tashkil qilinadigan joy va boshqa sharoitlar tahlil qilinadi.
- Texnikaviy sharoitlar. Bunda texnik jihoz va moslamalar, o‘quv va yordamchi audio vizual vositalarning mavjudligi holati o‘rganiladi.

Uchinchidan o‘tiladigan fanlar tahlil qilinib, modullar mazmunini belgilashda zarur bo‘ladigan turli manbalar, ya’ni o‘quv materiallari va boshqalar o‘rganiladi. Masalan, darslik, qo‘llanma va boshqa adabiyotlar.

### **Modulning o‘quv maqsadi va mazmunini belgilash.**

Modul texnologiyasi asosida o‘qitishda dastlab, o‘rganiladigan fanning o‘qitish maqsadi va mazmuni, modullarning maqsadi va mazmuni belgilanadi. O‘quv maqsadlari yakunida ta’lim tarbiya natijasi sifatida talaba erishishi lozim bo‘lgan bilim, malaka va shaxsiy ko‘nikmalar belgilanadi. Bunda o‘quv maqsadlari tarmoq ta’lim standart talablari asosida ishlab chiqiladi. Modulni o‘rganish maqsadi qanchalik aniq bo‘lsa, unga erishuvchanlik shunchalik oson bo‘ladi.

### **Modul bo‘yicha didaktik materiallar va o‘quv vositalarini tayyolash.**

O‘quv didaktik materiallar va o‘quv vositalari deyilganda bilim va malakalarni shakllantirishga xizmat qiluvchi axborot manbalari tushuniladi. Modulli texnologiya asosida o‘qitishda o‘quv didaktik materiallar sifatida nazariy va amaliy darslarda

matnli, vizual vositalar, masalan o‘quv adabiyotlar, kartoteka va ma’ruza matnlari, tarqatma materiallar, uslubiy ko‘rsatma materiallardan foydaniladi.

### **Nazariy va amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazish.**

Modul tarkibiga kiritilgan nazariy mashg‘ulotlarni quyidagi ketma-ketlikda o‘tkazish tavsiya etiladi.

**Qiziqtirish** (Motivatsiya uyg‘otish). Masalan mavzuga bog‘liq qiziqarli kashfiyat, yangilik yoki xizmatni tushuntirish bilan dars boshlanadi.

Ma’lumot (bilim) berish. O‘qituvchi o‘quvchilarga yangi materialarini tushuntiradi, qisqa ma’ruzalar o‘qydi, munozara, o‘quv suhbatи uyushtiradi. Yangi modul birligi o‘rganishdan avval o‘tilgan modul birliklari qisqacha umumlashtirilgan holda takrorlanadi.

Modul birligiga mos tarqatma materiallar beriladi. Bu o‘quv jarayonini osonlashtiradi. Ularni modul birligiga monan ravishda birin-ketin tarqatish va ko‘rib chiqish uchun yetarli vaqt ajratiladi. O‘zlashtirish bilimlarini mustahkamlash uchun topshiriqlar berish. Talabalarga tafakkur qilish va ma’lumotlarni qayta ishlash imkoniyatini yaratuvchi topshiriqlar beriladi. Har bir topshiriq yoki mashqdan keyin bajarilgan ishlar baholanadi. Natijalarni guruhda ochiqdan - ochiq muhokama qilish yaxshi natija beradi. Modulni o‘rganish oxirida yakuniy suhbat uchun vaqt ajratish kerak.

Talabalarning nazariy bilimi, amaliy ko‘nikma va malakasini baholash. Talabalar bilimi va ko‘nikmalarini o‘quv maqsadlariga muvofiq holda muntazam baholash kerak. Baholash huquqiy, pedagogik va psixologik tamoyillarga hamda davlat ta’lim standartlariga asoslanadi. Baholash orqali butun modulni o‘rganish jarayoni va uning barcha komponentlari maqbulligini tekshirib ko‘riladi. Bu bilan moduli o‘qitish kutilayotgan natijani berayotgani yoki bermayotgani aniqlanadi.

Shunday qilib, pedagogik texnologiya qo‘llaniladigan texnologiyalarning barchasi ham ta’lim oluvchilarni chuqur bilim olishlari va talab darajasida ko‘nikmaga ega bo‘lishlariga qaratilgan. Elektron adabiyotlar didaktikaning asosiy tamoyillarini ishonchli va yuqori darajada joriy qilish imkonini beruvchi samarali o‘qitish vositasi bo‘lib hisoblanadi. Elektron adabiyotlarni yaratishga elektron texnologiyalarga tayanish maqsadga erishishni osonlashtiradi. Bular foydalanuvchilarning turli doiralari uchun Elektron adabiyotlar mazmuniy qismining moslashuvchanligini ta’minlaydi. Elektron adabiyotlarni yaratishda asosiy tamoyillarga amal qilish, ularga qo‘yiladigan didaktik, texnik, texnologik, ergonomik, estetik va boshqa talablarga rioya qilish tavsiya etiladi. Elektron adabiyotlar o‘rganilayotgan materialni an’anaviy o‘quv adabiyotlariga nisbatan induktiv yondashish eshitish va emotSIONAL xotiralarga ta’sir qilish yo‘llari bilan materialni yetkazish orqali tushunishni yengillashtiradi, hamda ta’lim oluvchilarning ehtiyojiga tayyorgarlik darajasiga intellektual imkoniyatlarga

moslashtirilgandir. Elektron o‘quv adabiyotlarning mohiyatiga diqqatni jalb etgan holda ko‘p sondagi ma’lumotlarni va topshiriqlarni qarab chiqish va ko‘proq amaliy masalalar yechishga imkon yaratgan holda murakkab hisoblashlar va almashtirishlardan xolos etadi. O‘rganishning barcha bosqichlarida o‘zini-o‘zi tekshirib ko‘rishi uchun keng imkoniyatlar yaratiladi. Ishni chiroyli va aniq tizimlashtirishga va uni o‘qituvchiga fayl yoki qog‘ozda chop etish bilan topshirish mumkin. Elektron adabiyotlarni ekspertizadan o‘tkazish guruhlari tomonidan to‘g‘ri tashkil etilishi, ekspertiza natijalarini tahlil qilish va yakuniy qarorlar qabul qilish elektron adabiyotlarni takomillashtiradi. Yana shuni hisobga olish kerakki masofaviy ta’lim sifatida LMS Moodle tizimida joylashtirilgan kurslar ta’lim sifatini, samaradorligini oshirishda muhim omillardan biri hisoblanadi. Shuni hisobga olib mazkur fandan LMS Moodle kurs yaratilsa bu internet orqali mazkur fan haqida bilib olish, uni o‘zlashtirishga katta yordam bo‘ladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. Mazkur kitobdan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2016 yil 1 noyabrdan 24 noyabrga qadar Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri saylovchilari vakillari bilan o‘tkazilgan saylovoldi uchrashuvlarida so‘zlagan nutqlari o‘rin olgan. /Sh.M.Mirziyoyev. – Toshkent: : “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. S.Q.Tursunov, V.T.Jo‘rayev. Pedagogik dasturiy vositalar. Pedagogika oliy ta’lim muassasalari talabalari uchun o‘quv qo‘llanma. T.: «Lesson Press», 2022, 212 b.
3. Smart Technology based Education and Training // Smart Digital Futures. - Amsterdam: IOS Press BV, 2014.
4. Katrina Marie Baker. LMS Success: A Step-by-Step Guide to Learning Management System Administration. 2nd Edition. Resources of Fun Learning; 2 edition. 184 pages.